



Institute for Macroeconomic
and Regional Studies

EKRAN ORTIDAGI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTON ONLAYN GIG IQTISODIYOTIDA BANDLIK



Mundarija

Kirish 4

O'zbekiston ham global gig iqtisodiyot transformatsiyasidan chetda qolmadi. 5

Pandemiyadan so'ng, O'zbekistonda onlayn ishlashga bo'lgan qiziqish yidan-yilga ortib bormoqda. 5

O'zbekistondagi onlayn gig ishchilarning deyarli uchdan bir qismi ingliz tilida faoliyat yuritadi. 8

So'nggi yillarda dasturlash va IT sohasi O'zbekistondagi onlayn gig ishchilar orasida eng mashhur sohaga aylandi. 8

Dasturlash va IT sohasi eng yuqori maosh to'lovchi soha. 10

Takliflar 10

Rasmlar:

1-rasm. Tillar kesimida "google trends" indeksiga ko'ra onlayn ishlashga qiziqish, (100 = maksimum qiziqish) 6

2-rasm. Dunyoda o'zbekistonlik onlayn gig ishchilarning ulushi 7

3-rasm. Tillar kesimida O'zbekistondagi onlayn gig ischilar ulushi (foiz hisobida) 8

4-rasm. 2017-2024-yillarda O'zbekistonda onlayn gig ishchilar ulushi 9




Kirish

Bugungi kunda jahon mehnat bozori tez sur'atlarda o'zgarib bormoqda. Ish faoliyatining tobora ko'proq raqamli texnologiyalar, masofaviy aloqa vositalari va onlayn platformalar orqali bajarilishi bu jarayonni yanada jadallashtirmoqda. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasidan so'ng masofaviy va moslashuvchan ish shakllariga bo'lgan ehtiyoj keskin oshdi. Natijada an'anaviy, ofisga asoslangan bandlik tizimi o'z o'rnnini asta-sekinlik bilan gig iqtisodiyot — ya'ni vaqtinchalik, loyihaviy va mustaqil ishlarga asoslangan yangi modelga bo'shatib bermoqda.

Onlayn gig ishchilar raqamli platformalar (masalan, Upwork va Fiverr) orqali moslashtirilgan, boshqariladigan va to'lanadigan (ishbay yoki soatbay) qisqa muddatli, vazifaga asoslangan topshiriqlarni bajarish orqali daromad topadigan shaxslardir. Ish odatda masofadan turib, bitta ish beruvchi uchun emas, balki bir vaqtning o'zida bir nechta mijozlar uchun buyurtma asosida bajarilishi mumkin. Platforma esa topshiriqlarni ro'yxatga olish, ish samaradorligini baholash va to'lovlarni amalga oshirish kabi asosiy vazifalarni o'z zimmasiga oladi.

Jahon bankining 2023-yildagi hisobotiga ko'ra, global miqyosda onlayn gig ishchilarning soni 154 million nafardan 435 million nafar oralig'ida. Bu ishchilarning jahon mehnat bozoridagi ulushi 4,4 foizdan 12,5 foiz oralig'ida ekanligini anglatadi [1]. Vud va boshqalarning (2019) tadqiqotida gig iqtisodiyotda sug'urta yoki pensiya kafolatlari ta'minlanmaganligi sababli ijtimoiy himoya zaif bo'lsada, ishsizlikning kamayishi va valyuta tushumlaring oshishi hamda gig ishchilar o'z ish vaqtini boshqarishda nisbatan erkinroq ekanligi ta'kidlangan [2]. McKinsey Global Institutining tadqiqotida gig iqtisodiyot YalM ga bevosita hissa qo'shishi, lekin buning aniq hajmini hisoblash qiyinligi ta'kidlangan [3]. Staffing Industry Analysts ma'lumotlariga ko'ra, global gig iqtisodiyot 2022-yil yakunida 3,8 trillion AQSh dollari miqdorida umumiylar daromad keltirgan [4]. Bu ko'rsatkich nafaqat AQSh, balki rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarda ham gig iqtisodiyotning o'rni, hissasi va strategik ahamiyati ortib borayotganini namoyon etadi.

Progressiv gig ishchilar forumi hisobotiga ko'ra, gig iqtisodiyot Hindistonda 2030-yilgacha 90 millionta yangi ish o'rni yaratishi va YalMning 1,25 foiz oshishiga hissa qo'shishi mumkin [5]. Bu iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashda gig iqtisodiyotning o'ziga xos strategik ahamiyatini ko'rsatadi.



Tahlilda foydalanilgan ma'lumotlar:

Tadqiqotda Oksford universitetidagi Oksford internet institutining Onlayn mehnat indeksi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Oksford Internet instituti 2016-yildan beri Online Labour Index (OLI) — ya'ni Onlayn Mehnat Indeksini yuritadi. OLI 12 ta yirik platformadan real vaqt tartibida e'lon qilinadigan vakansiyalarni yig'ib, ulardan "yakuniy indeks" hosil qiladi; natija xuddi fond birjasidagi kabi kunma-kun o'zgarib turadi. Indeks ingliz (Upwork.com, Freelancer.com, Fiverr.com, PeoplePerHour.com, Mturk.com va Guru.com), ispan (Freelancer.es, Twago.es va Workana.es) va rus (Freelancer.ru, Freelancehunt.ru va Weblancer.ru) tillaridagi platformalarni o'z ichiga oladi.

OLI virtual mehnat bozoridagi "barometr" bo'lib, global onlayn mehnat talabi va uning tarkibiy tuzilmasini "jonli" ko'rsatib beradigan yagona ochiq manba hisoblanadi. Bundan tashqari, Google Trends (indeksi) orqali O'zbekistonda onlayn ishlashga bo'lgan qiziqish baholandi.

O'ZBEKISTON HAM GLOBAL GIG IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYASIDAN CHETDA QOLMADI.

So'nghi yillarda mamlakatda raqamli platformalarda ishlash ommalashib borib, aholi uchun ish imkoniyatlari kengaydi. 2024-yilning uchinchi choragi yakuniga oid ma'lumotlarga ko'ra, xorijga xizmat ko'rsatuvchi IT-kompaniyalar soni 936 taga yetdi (o'sish 2023-yildagiga nisbatan 170 foiz). 2024-yil uchinchi choragida hududlardan IT-xizmatlari eksporti o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 3,7 barobar oshdi [6].

2024-yilda Internet tarmog'iqa ulangan jismoniy shaxslar soni 29,7 mln. nafarga yetdi va

pandemiyadan oldingi davr bilan taqqoslaganda 1,9 barobar o'sdi [7]. Qolaversa, internet tezligini baholash bo'yicha jahondagi nufuzli reytinglardan bira – "Speedtest Global Index"ga ko'ra, O'zbekiston 2025-yil iyun oyiga kelib 71-o'rinni egallagan (2020-yilda 133-o'rin). Internetning o'rtacha tezligi 2020-yildagi 10 Mbps.dan 2025-yilda 56 Mbps.ga yetdi. Bu esa masofaviy ishlash uchun mustahkam asos yaratayotgan omillardan biri [8].


Masofaviy ta'llim gig iqtisodiyotning yana bir muhim qismi hisoblanadi. YouTube, Zoom, Coursera, Udemy, Skillbox kabi platformalarda o'zbek tilida yaratilayotgan kontentlar soni ham ortib bormoqda [9]. 2024-yilda O'zbekistonning eng yirik 35 ta EdTech kompaniyasi jami 118 milliard so'm daromad oldi. Bu avvalgi yildagiga nisbatan 94 foiz ko'p. Smart Ranking bahosiga ko'ra, mamlakatdagi umumiy onlayn ta'llim bozori hajmi kamida 126 milliard so'mni tashkil etadi. Bozor nafaqat O'zbekistonning o'zidagi, balki Rossiya va Qozog'istondan kelgan ko'plab yangi ishtirokchilar hisobiga ham o'smoqda [10].

PANDEMIYADAN SO'NG, O'ZBEKISTONDA ONLAYN ISHLASHGA BO'LGAN QIZIQISH YIDAN-YILGA ORTIB BORMOQDA.

Gugl trends tahliliga ko'ra 2017–2020 yillarda internet tarmog'ida onlayn ish topishga oid kalit so'zlarga katta qiziqish kuzatilmagan. Ingliz, rus va o'zbek tillarida bu mavzudagi izlanishlar soni juda kam bo'lgan. Bu holat asosan texnologik infratuzilmaning rivojlanmaganligi va raqamli ko'nikmalarning yetarli emasligi bilan izohlanadi. 2020-yilda, ayniqsa mart-aprel oylaridan boshlab, COVID-19 pandemiyasi sababli ushbu so'zlarga bo'lgan qiziqish uchala tilda ham keskin oshgan. Aholi masofaviy ish imkoniyatlarini faol izlay boshlagan va "internet orqali pul ishlash" bo'yicha aprel oyida eng yuqori qidiruv darajasi qayd etilgan.

1-rasm. Tillar kesimida "google trends" indeksiga ko'ra onlayn ishlashga qiziqish, (100 = maksimum qiziqish)

O'zbek tili | Ingliz tili | Rus tili




Manba: "Google trends" ma'lumotlari asosida muallit ishlanmasi.

2021–2022 yillarda onlayn ishlarga bo'lgan qiziqish yuqori darajada saqlanib qoldi. Bu davrda aholi orasida onlayn ishlarga bo'lgan ishonch oshdi va izlanishlar doimiy davom etdi. 2023–2025 yillar oralig'ida qidiruv dinamikasi yanada murakkablashdi. "Onlayn ish" va "freelance" kabi umumiylar so'zlarga qiziqish barqaror yuqori darajada qolayotgan bo'lsa-da, yangi segmentlar masalan, "internetda pul ishlash" va "uy bekalari uchun ish" kabi so'zlarni qidirishlar soni ham ortgan. Bu esa gig iqtisodiyot jamiyatdagi turli guruhlar orasida kengayib borayotganini ko'rsatadi (1-rasm).

OLI ma'lumotlari tahviliga ko'ra, 2017-2019 yillarda global mehnat bozorida onlayn ishchilarga bo'lgan talab keskin oshib ketgan. Shu sababli bozor hajmi

sezilarli darajada kengaygan va natijada O'zbekistonning ulushi mos ravishda 0,024 foizdan 0,01 foizga qisqargan. Qolaversa, ushbu davrda aholining ingliz tilida internet tarmog'ida qidiruv ko'nikmalari unchalik rivojlanmagan edi. 2019-2020 yillarda esa COVID-19 pandemiyasi ta'sirida tabiiy ravishda onlayn ishlarga talab oshib ketdi. Aynan ushbu davrda mamlakatimizning ulushi 0,010 foizdan 0,017 foizga oshdi. 2021-yilda esa gig iqtisodiyotda ishchilar sonining o'sishi pandemiya davridagi sur'atga nisbatan sekinlashdi (0,016 foiz). Pandemiya davri tugaganiga qaramay onlayn formatda ishlovchi xodimlar soni keskin kamayib ketmadni, chunki onlayn ishlashning qulayliklari ko'plab korxonalar tomonidan e'tirof etildi va gibrid model ommalashdi. Upwork va Fiverr kabi

2-rasm. Dunyoda o'zbekistonlik onlayn gig ishchilarning ulushi



Manba: Oxford Internet Instituti hamda Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) Onlayn Mehnat Observatoriysi ma'lumotlari.


platformalar pandemiya paytida jadal rivojlandi va undan keyin ham o'sishda davom etdi. Bu gig ishchilari uchun ko'plab yangi imkoniyatlar yaratdi. 2022-2024 yillarda gig ishchilar soni yana o'sishni boshladi. Xususan, O'zbekistonning global gig iqtisodiyotidagi ulushi 2022-yilda 0,021 foizdan, 2024-yilda esa 0,031 foizga yetdi (2-rasm). Yuqoridaq ulush bir qarashda kichik sondek ko'rinishi mumkin, lekin dunyo miqyosidagi barcha onlayn ishchilar (154 mln. [1]) sonidagi ulush ekanligini inobatga olganda mamlakatimizda taxminan 46,2 mingta onlayn gig ishchilar mavjud deyish mumkin.

Ma'lumot uchun: Markaziy Osyoning boshqa mamlakatlarida ham onlayn mehnat hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Jumladan, global onlayn mehnat

bozoridagi ulushga ko'ra, 2024-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida Qozog'iston (0,31 foiz) yetakchilik qilgan, keyingi o'rinnarda O'zbekiston (0,03 foiz), Tojikiston (0,01), Qirg'iziston (0,006), Turkmaniston (0,001). O'zbekistonda so'nggi 5 yil ichida ushbu ulush 3,1, Qozog'istonda 2,8, Qirg'izistonda 3, Tojikistonda 7 barobarga oshgan.

Hindiston dunyodagi onlayn gig ishchilar orasida eng katta ulushiga ega bo'lib, jahon bo'yicha onlayn gig ishchilarning 26,1 foizi ushbu mamlakatda faoliyat ko'rsatadi (keyingi o'rinnarda Bangladesh (14,9 foiz), Pokiston (12,4 foiz), AQSh (5,3 foiz) va Buyuk Britaniya (3,6 foiz)) [13].

3-rasm. Tillar kesimida O'zbekistondagi onlayn gig ischilar ulushi (foiz hisobida)



Manba: Oksord Internet Institut hamda Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) Onlayn Mehnat Observatoriysi ma'lumotlari.
Izoh: Diagrammalar tanlangan platformalardagi (Fiverr, Upwork, Freelancer.com, Freelance.ru, Weblancerru va boshqalar) cylirk faoliyatlarning umumiy ulushini ko'sratadi, bu ulushlar o'lchanigan vaqt davri uchun jamilib, umumiy ko'satkichga aylanriligan. Javdallarda ishchilarning mutlaq soni ko'satilagan, chunki bir xil ishchilar har kuni qayta hisobga olinishi mumkin. Ingliz va rus tillaridagi platformalar uchun ma'lumotlar 2020-yildan 2024-yil sentabrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

O'ZBEKISTONDAGI ONLAYN GIG ISHCHILARNING DEYARLI UCHDAN BIR QISMI INGLIZ TILIDA FAOLIYAT YURITADI.

O'zbekistonda onlayn gig ishchilarning deyarli har uch nafaridan ikkitasi (66 foizi) ingliz tilida faoliyat yuritadi, qolganlari esa (34 foizi) rus tilida. Sohalar kesimida, yozish va tarjima, sotuv va marketing, professional xizmatlar, hujjatlar va ma'lumotlarni kiritish sohalarida faoliyat yurituvchi onlayn ishchilar to'liq ingliz tilida xizmat ko'rsatadi. Bundan tashqari, mamlakatimizda dasturiy ta'minot va IT sohasidagi onlayn xizmatlarning 66 foizi, kreativ va multimedia sohasidagi xizmatlarning esa 47 foizi ingliz tilida ko'rsatiladi (4-rasm).

Ma'lumot uchun: Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Qozog'istonda onlayn gig ishchilarning 88 foizi, Tojikistonda 70 foizi va Qirg'izistonda 65 foizi ingliz tilida faoliyat olib boradi.

Tillar kesimida ingliz tilida faoliyat yurituvchi onlayn gig ishchilarga bo'lgan talab dunyodagi talabning 95 foizini, rus tilida faoliyat yurituvchi onlayn gig ishchilarga bo'lgan talab 3 foizini, ispan tilida faoliyat yurituvchi onlayn gig ishchilarga bo'lgan talab esa 2 foizini tashkil qiladi. Shuningdek, dasturiy ta'minot va IT sohasidagi talabning 90 foizdan ortiq qismi ham ingliz tilidagi platformalardadir.

SO'NGGI YILLARDA DASTURLASH VA IT SOHASI O'ZBEKISTONDAGI ONLAYN GIG ISHCHILAR ORASIDA ENG MASHHUR SOHAGA AYLANDI.


2017-2024 yillar davomida o'zbekistonlik onlayn ishchilar (frilanserlar) ishlaydigan sohalarda katta burilish yuzaga keldi. Ushbu davr mobaynida dasturiy ta'minot va IT sohasida faoliyat yurituvchilarning ulushi kengayib bordi va 2024-yilning 3-choragiga kelib, mamlakatimizdagi jami onlayn gig ishchilarning 96 foizi dasturiy ta'minot va IT sohasida faoliyat yuritgan.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, mamlakatimizda onlayn IT soha vakillarining ulushi 2022-yilning 1-choragida atigi 15 foizni tashkil etgan va 2 yil ichida yuqoridagi ko'rsatkichga (96 foiz) yetgan. Bu O'zbekistonda IT sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda Rossiya-Ukraina mojarosi fonida O'zbekistonda IT Visa va IT Card tizimlarining samarali ishlaganini ifodalashi mumkin. Shunga qaramasdan, O'zbekistonlik onlayn IT sohasi mutaxassislarining dunyodagi ulushi 2022-2024 yillar davomida 0,46 foizdan 0,62 foizga oshib, kichikligicha qolmoqda. Bunga ichki bozordagi yuqori talab hamda dasturiy ta'minot va IT sohasida faoliyat yurituvchi malakali xodimlarning


4-rasm. 2017-2024-yillarda O'zbekistonda onlayn gig ishchilar ulushi

O'zbekistonda tez rivojlanayotgan onlayn gig sohalar va ularda band bo'lganlarning xalqaro miqyosdagi ulushi (foiz hisobida)

■ Dasturiy ta'minot va IT ■ Kreativ va multimedia
■ Yozish va tarjima ■ Sotuv va marketing ■ Professional xizmatlar



Sohalar kesimida O'zbekistondagi onlayn gig ishchilar ulushi (foiz hisobida)



Manba: Oksford Internet Institutni hamda Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) Onlayn Mehnat Observatoriysi ma'lumotlari.

kam ekanligini sabab sifatida aytish mumkin (4-rasm).

Ma'lumot uchun: Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining hisobotiga ko'ra, mamlakatimizdagi IT kompaniyalarining 62 foizida xodimlar yetishmovchiligi mavjud. Dasturiy mahsulot ishlab chiqishda yetarli malakaga ega bo'lgan bitiruvchilarning kamligi ayniqsa, sun'iy intellekt va mashinaviy o'rGANISH (ing. machine learning) ko'nikmalariga ega bo'lgan xodimlar yetishmaydi [14]. Bundan tashqari, Jahon Iqtisodiy forumining "Future of

"Jobs" hisobotida O'zbekistonda dasturchilik bilan shug'ullanishga bo'lgan talab o'rtacha global ko'rsatkichga nisbatan (17 foiz) balandroq ekanligi qayd etilgan [15].

DASTURLASH VA IT SOHASI ENG YUQORI MAOSH TO'LOVCHI SOHA.

OLI asos qilib olgan platformalar tahlili dasturlash va IT sohasida soatbay ish haqining o'rtacha miqdori yuqori ekanini ko'rsatdi (48 AQSh dollarri,

kreativ va multimedia: 34 AQSh dollari, sotuv va marketing: 25 AQSh dollari, professional xizmatlar: 28 AQSh dollari, hujjatlar va ma'lumotlarni kiritish: 16 AQSh dollari, yozish va tarjima: 15 AQSh dollari). Bu o'z navbatida O'zbekistonda yashab turgan dasturlash va IT sohasi mutaxassislari yuqori daromad topish imkoniyatiga ega ekanliklarini ko'rsatadi.

Ma'lumot uchun: Rossiyada ishlab yurgan o'zbekistonlik mehnat muhojirlari oyiga o'ttacha 600 AQSh dollari daromad qiladi [16] (Qozog'istonda esa 511 AQSh dollari [17]). Onlayn IT sohasida faoliyat yurituvchilar taxminan 12,5 saat mehnat qilib 600 AQSh dollari daromad qiladi.

Xulosa qilganda, O'zbekistonda bugungi kunda onlayn gig iqtisodiyot rivojlanib bormoqda, ammo global rivojlanish darajasidan biroz ortda qolmoqda.

TAHLIL NATIJALARIDAN KELIB CHIQQAN HOLDA QUYIDAGILAR TAKLIF QILINADI:

- O'zbekistonda IT park va universitetlar bilan hamkorlikda "Bir million dasturchi loyihasini" takomillashtirib, onlayn mehnat qilish asoslari, onlayn mehnat qilish uchun kasblar (asosan, dasturlash va IT hamda kreativ va multimedia sohalarida) va bu kasblar uchun mo'ljallangan ingliz tili kurslarini tashkil etish lozim.

Ma'lumot uchun: 2018-yildan bugunga qadar Pokistonning "DigitalSkills.pk" dasturidan Pokistonning 300 ga yaqin shahrida 4 milliondan ortiq yoshlar foydalangan bo'lib, dastur 25 xil turdag'i raqamli savodxonlik va frilanserlik bo'yicha onlayn kurslarni taklif etadi [18]. Dastur bitiruvchilari 467,2 ming AQSh dollarigacha daromad topayotganini qayd etgan [19]. Malayziyaning "Global onlayn mehnat kuchi" dasturi doirasida 2016-yildan beri 70 mingdan ortiq yoshlar raqamlashgan gig iqtisodiyotga tayyorlangan bo'lib, bugungi kunga qadar dastur bitiruvchilari 53,5 mln. AQSh dollari miqdorida daromad qilgan [20].

- Ijtimoiy himoya yagona reyestrda yoshlar va xotin-qizlarning onlayn mehnat (frilanserlik) qilishlarini qo'llab-quvvatlash uchun mamlakatimizdagi aloqa operatorlari bilan hamkorlikda arzonlashtirilgan internet tariflari ko'rinishidagi subsidiyalarni joriy qilish taklif etiladi.

Ma'lumot uchun: Tadqiqotlar arzonlashtirilgan internetning mavjudligi kam daromadli shaxslarning ishga joylashish ehtimolini 1 foiz bandiga oshirganini ko'rsatgan.

- "Trening + uskuna" modeli orqali ijtimoiy himoya yagona reyestrda yoshlar va xotin-qizlarni onlayn mehnat (frilanserlik)ga jalb etish tavsiya etiladi. Bu model doirasida ular bepul onlayn tarzda ingliz tili (frilanserlik uchun), frilanserlik faoliyati asoslari va frilanserlik kasblari (masalan, grafik dizayn va dasturlash) bo'yicha bilim oladilar. Treningni muvaffaqiyatlari yakunlaganlarga esa imtiyozli kreditlar asosida noutbuk olish imkoniyati beriladi.
- Starlink va OneWeb kabi sun'iy yo'ldosh tarmoqlari bilan hamkorlikni jadallashtirib, yuqori tezlikdagi internet bilan qamrab olinmagan hududlarda internetga tezkor ulanishni ta'minlash lozim. Bu orqali chekka hududlardagi aholining onlayn mehnat qilish imkoniyatlari yaxshilanadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekistonda 4G yoki 5G tarmoqlari orqali internetga ulanish 94 foizni tashkil qiladi (Armanistonda 96,7 foiz, Ozarbayjonda 96,5 foiz, Qozog'istonda 95,7 foiz, Qirg'izistonda 95,1 foiz, Tojikistonda 89,1 foiz). Qozog'istonda joriy yilning 3-choragidan chekka hududlarda internet sifatini yaxshilash maqsadida Starlink sun'iy yo'ldosh terminallari sotuviga ruxsat etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Overview ENGLISH Working Without Boarders Online Gig Work
- [2] Wood, A. J., Graham, M., Lehdonvirta, V., & Hjorth, I. (2018). Good Gig, Bad Gig: Autonomy and Algorithmic Control in the Global Gig Economy. *Work, Employment and Society*, 33(1), 56-75. <https://doi.org/10.1177/0950017018785616> (Original work published 2019)
- [3] Independent work: Choice, necessity, and the gig economy | McKinsey
- [4] Global gig economy revenue reaches USD 3.8 trillion
- [5] India's gig economy may add 90 million jobs, contribute 1.25% to GDP | Economy & Policy News - Business Standard
- [6] <https://it-park.uz/uz/itpark/news/o-zbekistondan-eksport-geografiyasi-78-mamlakatga-kengaydi-3-chorak-yakunlari>
- [7] <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>
- [8] <https://www.speedtest.net/global-index/uzbekistan>
- [9] <https://www.spot.uz/oz/2025/07/02/edtech-rise>
- [10] <https://edtechs.ru/>
- [11] How hybrid work has changed society | McKinsey
- [12] <https://www.strongdm.com/blog/remote-work-statistics>
- [13] Supply – Online Labour Observatory
- [14] https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz_digital-economy-study_eng.pdf
- [15] The Future of Jobs Report 2025 | World Economic Forum
- [16] <https://kapital.uz/migranti-v-moskve>
- [17] https://uzbekistan.iom.int/sites/g/files/tmzbdl2566/files/documents/2025-03/eng_r3_uzbek_international-migrant-workers-in-kazakhstan-2.pdf
- [18] DigiSkills 3.0 Launched for 3M Youth in Pakistan
- [19] Success Stories - DigiSkills Training Program | Free online training in Pakistan
- [20] Malaysia dials up its digital economy push
- [21] Fiverr Announces Expansion into Latin America with Launches in Brazil and Mexico

Mualliflar:

Ilkhom Ikromov,
MHTI bosh mutaxassisi

Umida Yakubjanova
MHTI yetakchi mutaxassisi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy
tadqiqotlar instituti (MHTI)

33, Xadra massivi, Toshkent, O'zbekiston,
100011
+998 (71) 244-01-17
info@imrs.uz